

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№10

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025

oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
81 sahifa, oktyabr, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadirxodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
PECULIARITIES OF THE IRRIGATION WATER DELIVERY PAYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	41
Muminov Sherzod Kholmiraevich	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI.....	55
Vohobov Hikmatillo Ma‘mirjon o‘g‘li	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA‘LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQUISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA‘RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA‘LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI.....	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	



RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA'LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O'RNI

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası

katta o'qituvchisi, PhD

E-mail: mirzabekjonuzokov@gmail.com

ORCID:0009-0004-3010-9266

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning dolzarbligi, uning nazariy-metodologik tamoyillari hamda oliy ta'lim sohasiga investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqotda, shuningdek, oliy ta'limni davlat tomonidan institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, moliyaviy va tashkiliy resurslardan samarali foydalanish yo'nalishlari hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida ta'lim tizimining barqaror rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim investitsiyalari, raqamli iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish, ta'lim sifati va kadrlar tayyorlash, oliy ta'lim modernizatsiyasi.

Abstract: This article substantiates the relevance of the modernization of the higher education system in the Republic of Uzbekistan, its theoretical and methodological principles, and the possibilities of attracting investments in the field of higher education. The study also analyzes the mechanisms of institutional support of higher education by the state, the directions of effective use of financial and organizational resources, and the prospects for sustainable development of the education system in the digital economy.

Key words: higher education investments, digital economy, innovative development, quality of education and personnel training, modernization of higher education.

Аннотация: В статье обосновывается актуальность модернизации системы высшего образования Республики Узбекистан, её теоретико-методологические основы, возможности привлечения инвестиций в сферу высшего образования. Анализируются механизмы институциональной поддержки высшего образования со стороны государства, направления эффективного использования финансовых и организационных ресурсов, перспективы устойчивого развития системы образования в условиях цифровой экономики.

Ключевые слова: инвестиции в высшее образование, цифровая экономика, инновационное развитие, качество образования и подготовка кадров, модернизация высшего образования.

KIRISH

Respublika iqtisodiyotining jadal rivojlanishini ta'minlashda jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimini izchil modernizatsiya qilish va sohaga investitsiyalarni keng miqyosda jalb etish strategik ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda mazkur yo'nalishni qo'llab-quvvatlash va barqaror rivojlantirish maqsadida mustahkam me'yoriy-huquqiy baza shakllantirilgan bo'lib, ular orasida “O'zbekiston–2030” strategiyasi hamda oliy ta'limni modernizatsiya qilishga qaratilgan qonun va qarorlar alohida o'rin tutadi.

Mazkur strategiyada oliy ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar belgilangan bo'lib, jumladan, ta'lim sifati va investitsiya muhitini yaxshilash, kadrlar tayyorlash jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish, oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish kabi vazifalar asosiy maqsad sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, 2030-yilgacha oliy ta'lim qamrovini 80 foizga yetkazish, milliy universitetlarning xalqaro reytinglardagi pozitsiyalarini mustahkamlash hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatida xususiy sektor investitsiyalarining ulushini sezilarli darajada kengaytirish respublika ta'lim siyosatining strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.



2030-yilga qadar maktab, litsey va kollej bitiruvchilarining kamida 50 foizini oliy ta'lim bilan qamrab olish rejalashtirilgan bo'lib, ushbu vazifaga erishish uchun zarur institutsional, moliyaviy va tashkiliy mexanizmlar bosqichma-bosqich joriy etilishi¹ oliy ta'limga berilayotgan e'tiborni davlat siyosatining strategik ustuvor yo'nalishi sifatida namoyon etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish va sohaga investitsiyalarni jalb etish jarayonini tahlil qilish hamda jahon tajribasi asosida samarali taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

M.Perkmann va hamkasblarining[4] keng qamrovli sharhi universitetlar va sanoat o'rtasidagi aloqalarni, ilmiy-tadqiqot institutlarining tijorat faoliyatini va akademik jamoaning sanoat bilan hamkorligini empirik tadqiqotlar asosida tizimlashtiradi. Mualliflar adabiyotlarni sintez qilib ilmiy-tadqiqot, konsultatsiya va rasmiy hamkorlik shakllarining mamlakat va fan sohasi bo'yicha xilma-xilligini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda universitetlar va korxonalar o'rtasidagi faol aloqalar innovatsiya va investitsiya muhitini mustahkamlaydi va mintaqaviy iqtisodiy rivojga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

S.Jamil[5]ning asari jahon tajribasidan foydalangan holda olimlar va boshqaruvchilar uchun dunyo miqyosida raqobatbardosh universitetni barpo etish yo'llarini bayon etadi. Kitobda strategik rejalashtirish, moliyaviy boshqaruv va xalqaro integratsiya amaliyotlari misollari keltiriladi hamda samarali boshqaruv va ilmiy salohiyatni shakllantirish orqali universitetlar mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirishda muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi. Muallif misollari akademik sifat va bozor ehtiyojlarini uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan.

P.Benneworth[6]ning tahliliy ishida universitetlarning mintaqaviy rivojlanishga qo'shgan hissasi va bu jarayonda yuzaga keladigan ziddiyatlar tahlil qilinadi. Muallif mavzuni adabiyot va case study yondashuvi orqali yoritib universitetlar ilmiy tadqiqotlar, malakali kadrlar va lokal innovatsion klasterlar orqali mahalliy sanoatni qo'llab quvvatlashini ko'rsatadi. Xulosada universitet strategiyalari va hududiy siyosatning uyg'unligi investitsiya muhiti va iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi.

D.Ambasz va hamkasblarining[7] tadqiqotida Markaziy Osiyo oliy ta'limini rivojlantirish bo'yicha yo'l xaritasi mintaqaviy integratsiya, ilmiy salohiyatni oshirish va qonunchilikni modernizatsiya qilish choralari taklif etadi. Hujjat tahliliy ma'lumotlar va ekspert maslahatlariga asosanib mamlakatlararo hamkorlik, ilmiy almashinuv va tadqiqot infratuzilmasini yaxshilash orqali universitetlarning milliy iqtisodiy salohiyatga qo'shadigan hissasini oshirish mumkinligini ko'rsatadi. Natijada oliy ta'limni modernizatsiya qilish investitsiya jozibadorligini kuchaytiradi.

World Bank[8]ning O'zbekiston oliy ta'limini modernizatsiyalash loyihasi hujjatlari mamlakat miqyosida boshqaruvni mustahkamlash, universitetlarning moliyaviy va akademik mustaqilligini oshirish hamda sanoat bilan hamkorlikni rivojlantirish choralari taklif qiladi. Loyihaning monitoring va baholash materiallari asosida olingan dalillar yuqori sifatli ta'lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatining uzoq muddatli iqtisodiy foyda va investitsiyalarni jalb etishda muhim ekanligini ko'rsatadi. Hujjatlar O'zbekistonda oliy ta'limni yangilash strategiyasini amaliy yo'lga qo'yish uchun asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda oliy ta'lim tizimining qamrovi dinamik o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Xususan, 2016-yilda aholining oliy ta'lim bilan qamrovi atigi 9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil yakuniga kelib ushbu ko'rsatkich 38 foizgacha oshdi. Strategik istiqbol rejalariga muvofiq, 2030-yilga borib oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 80 foizga yetkazish ko'zda tutilgan bo'lib, bu mamlakatning intellektual kapitalini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, milliy oliy ta'lim muassasalarining xalqaro akademik maydondagi mavqei ham bosqichma-bosqich mustahkamlanmoqda. Jumladan, 2024-yil holatiga ko'ra, to'rt nafar milliy universitet QS World University Rankings reytingida, uch nafar oliy ta'lim muassasasi esa Times Higher Education (THE) xalqaro reytingida qayd etilgan. Bu esa respublika oliy ta'lim tizimining sifat ko'rsatkichlari global standartlarga muvofiqlashib borayotganidan dalolat beradi (1-jadval).


¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>

1-jadval. Oliy ta'lim investitsiya va rivojlanish ko'rsatkichlari²

Ko'rsatkich	2017	2021	2024
OTMLar soni (dona)	72	–	219
Oliy ta'lim qamrovi (%)	8,3	–	47,7
Chet ellik talabalar soni (ming)	1,3	–	12,5
Davlat grantlari (ming)	21	–	47
Nodavlat OTMLar soni (dona)	–	17	76
Nodavlat OTM talabalar soni (ming)	–	38	420

Investitsiyalar ko'lamiga nazar tashlaydigan bo'lsak, so'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarini modernizatsiya qilish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida yo'naltirilayotgan mablag'larning hajmi barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Xususan, 2023-yilda oliy ta'lim tizimiga davlat budjetidan 2,5 trillion so'mdan ortiq mablag' ajratilgan. Shu bilan birga, xususiy sektor investitsiyalari, shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan taqdim etilgan grant va imtiyozli kreditlar ham sohaga qo'shimcha moliyaviy resurslar sifatida jalb etilmoqda. Mazkur jarayon oliy ta'lim tizimining modernizatsiyasi va xalqaro integratsiyasini jadallashtirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning xalqaro standartlarga moslashuvini ta'minlash va sohaga investitsiyalarni keng miqyosda jalb etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida oliy ta'lim sohasi nafaqat ta'lim jarayonida, balki iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida ham strategik ahamiyat kasb etuvchi omil sifatida shakllanmoqda (1-rasm).

1-rasm. Oliy ta'limga kiritilgan mablag'lar ulushi (2024-yil uchun)³.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish tuzilmasi davlat byudjeti, xorijiy kreditlar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va xususiy sektor investitsiyalari kabi asosiy manbalarga tayanadi. Davlat byudjeti umumiy ta'lim sohasiga ajratiladigan mablag'larning 25-30% ini tashkil etadi, bunda oliy ta'lim muassasalari uchun maxsus ajratmalar grantlar, infratuzilmaviy loyihalar va pedagog kadrlarning mehnat haqini qoplashga yo'naltiriladi. Xorijiy moliyaviy institutlar, xususan, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki tomonidan taqdim etilgan imtiyozli kreditlar investitsiyalarning taxminan 20% ini tashkil qilib, innovatsion loyihalarni amalga oshirish va universitetlar bilan sanoat sohasi o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (15%) xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallarini tashkil etish va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan. Xususiy sektor investitsiyalari (5%) nodavlat oliy ta'lim muassasalari sonining

² Maullif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan.

³ Maullif tomonidan statistik ma'lumotlarni tadqiqot etish natijasida ishlab chiqilgan



o'sishi (76 ta universitet) bilan xarakterlanadi, biroq sifat nazorati va moliyaviy cheklovlar tufayli ularning ulushi hali ham cheklangan bo'lib qolmoqda.

Davlat tomonidan oliy ta'limni qo'llab-quvvatlash quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:


Birinchidan, davlat buyurtmalari tizimi orqali oliy ta'lim muassasalarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash kengaymoqda. Jumladan, 2023-yilda davlat grantlari va ilmiy loyihalarga 2,5 trillion so'mdan ortiq mablag' ajratildi. Bu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan qariyb 5 barobarga oshganini ta'kidlash lozim.

Ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari uchun soliq qonunchiligida imtiyozlar joriy etilmoqda. Xususan, xususiy oliy ta'lim muassasalari uchun ayrim soliqlardan ozod qilish mexanizmlari ularning rivojlanishiga rag'bat bermoqda.

Uchinchidan, universitetlarni zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlash maqsadida davlat va xususiy sektor hamkorligida bir qator yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, Toshkent, Samarqand va Andijon shaharlarida xalqaro universitet kampuslari qurilishi, ta'lim klasterlari shakllantirilishi, ilmiy laboratoriyalar va texnoparklar barpo etilishi bunga yorqin misoldir.

To'rtinchidan, intellektual mulk obyektlarini himoya qilish, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish bo'yicha huquqiy mexanizmlar takomillashtirilmoqda. Bu esa ilm-fan natijalarini iqtisodiyotga integratsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

So'nggi yillarda oliy ta'lim qamrovi sezilarli darajada kengaydi: 2016-yilda bu ko'rsatkich atigi 9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil oxiriga kelib 38 foizga yetdi. Strategik maqsadlarga ko'ra, 2030-yilga borib qamrov darajasini 80 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Bu jarayon respublikada inson kapitalining sifat va miqdor ko'rsatkichlarini tubdan oshirish imkonini beradi (2-rasm).



2-rasm. Oliy ta'limni investitsiyalarni modernizatsiya orqali oshirish yo'llari⁴

2-rasmda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarini modernizatsiya qilish hamda investitsiyalarni samarali boshqarish yo'llari aks ettirilgan shartli diagramma taqdim etilgan.

Oliy ta'lim tizimida modernizatsiya jarayoni va investitsion boshqaruv mexanizmlari keltirilgan bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'langan turli yo'nalish va resurslarni o'z ichiga oladi:

Birinchidan, IT-laboratoriyalar, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (big data) markazlari zamonaviy texnologik infratuzilma sifatida ilmiy-tadqiqotlar va innovatsion jarayonlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ilmiy tadqiqot markazlari hamda davlat-xususiy sheriklik asosida yaratilgan platformalar davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlikni shakllantirib, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlaydi.

Uchinchidan, venchur kapital va xususiy investitsiyalar manbalari yangi biznes loyihalarini moliyalashtirish, universitetlarning innovatsion va tadqiqot faoliyatini kengaytirishda muhim moliyaviy manba sifatida xizmat qiladi.

4 Maullif tomonidan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan



To'rtinchidan, xalqaro donorlar va grant dasturlaridan jalb etilgan moliyaviy resurslar xorijiy investitsiyalar, grantlar va kreditlarni o'z ichiga olib, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Beshinchidan, universitetlar huzurida tashkil etiladigan texnoparklar va akseleratsiya markazlari ilmiy natijalarni tijoratlashtirish, startaplarni qo'llab-quvvatlash va yangi texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantiruvchi innovatsion muhit yaratadi.

Oltinchidan, yangi texnologiyalar, patent va intellektual mulkka asoslangan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish hamda intellektual mulkni muhofaza qilish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi ishtiroki ham izchil oshib bormoqda. Xususan, 2024-yil holatiga ko'ra, 4 ta milliy universitet QS World University Rankings reytingiga, 3 ta universitet esa Times Higher Education (THE) xalqaro reytingiga kiritilgan. Shu bilan birga, 20 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari mintaqaviy reytinglarda qayd etilgan bo'lib, bu O'zbekiston ta'lim tizimining global akademik maydondagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Oliy ta'lim tizimining rivojlanishida raqamli transformatsiya alohida o'rin tutadi. Bugungi kunda respublikada 70 foizdan ortiq oliy ta'lim muassasalari masofaviy ta'lim platformalariga ega, elektron kutubxonalar va raqamli boshqaruv tizimlari joriy etilgan. Shuningdek, "Elektron universitet" konsepsiyasi doirasida barcha OTMLlarda o'quv jarayonini boshqarishning yagona axborot tizimlari yaratilib, ta'lim jarayonining samaradorligi oshirilmoqda.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, oliy ta'limga investitsiyalarni ko'paytirish, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi loyihalarni amalga oshirish hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish mamlakatning intellektual salohiyatini oshirib, uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim tizimining rivojlanishi va mazkur sohaga investitsiyalarning jalb etilishi milliy iqtisodiyotning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, inson kapitaliga, xususan, oliy ta'lim sohasiga yo'naltirilgan sarmoyalar iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini oshirish, ijtimoiy farovonlikni mustahkamlash hamda xalqaro maydondagi raqobatbardoshlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Shu boisdan, O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va investitsion muhitni kengaytirish jarayonlari ustuvor davlat siyosati sifatida qaralmoqda.

Mazkur jarayon samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi yo'nalishlar muhim hisoblanadi:

Birinchidan, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish, zamonaviy kampuslar, ilmiy laboratoriyalar va innovatsion ta'lim markazlarini barpo etishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan keng foydalanish orqali moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish.

Ikkinchidan, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy etish, xususan, sun'iy intellekt asosida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, masofaviy va gibrid ta'lim shakllarini rivojlantirish uchun maqsadli investitsion dasturlarni shakllantirish.

Uchinchidan, oliy ta'lim muassasalarini xalqaro standartlarga integratsiya qilish, yetakchi xorijiy universitetlar bilan qo'shma dasturlarni yo'lga qo'yish, qo'shma fakultetlar va filiallar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalar oqimini kuchaytirish.

To'rtinchidan, ilmiy-tadqiqot faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, grantlar, venchur kapital va xalqaro moliyaviy institutlarning kredit liniyalaridan foydalanish orqali ilmiy-infratuzilmaviy salohiyatni mustahkamlash.

Beshinchidan, ta'lim sifatini oshirish maqsadida professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, xorijiy ekspertlarni jalb etish va akademik mobillik dasturlarini kengaytirishga qaratilgan investitsion tashabbuslarni rag'batlantirish.

Oltinchidan, oliy ta'lim tizimida institutsional boshqaruv samaradorligini ta'minlash, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, shaffoflikni kuchaytirish hamda xalqaro akkreditatsiya jarayonlarida faol ishtirok etish orqali investorlar ishonchini oshirish.

Yettinchidan, oliy ta'lim muassasalariga ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalarni jalb qilish, xususan, bank-moliya sektori, yirik sanoat korxonalarini va nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan ta'lim markazlari, ilmiy laboratoriyalar va startup-inkubatorlarni tashkil etishni rag'batlantirish.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, oliy ta'lim tizimiga yo'naltirilgan investitsiyalar nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki yuqori malakali kadrlar tayyorlash orqali iqtisodiyotning innovatsion transformatsiyasi va mamlakatning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Zero, ilm-fan va ta'limga qaratilgan sarmoyalar iqtisodiy o'sishning eng barqaror va yuqori samarali drayveri sifatida namoyon bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish to'g'risida”gi 824-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5193564>
4. Perkmann, M., Tartari, V., McKelvey, M., Autio, E., Broström, A., D'Este, P., Fini, R., Geuna, A., Grimaldi, R., Hughes, A., Krabel, S., Kitson, M., Llerena, P., Lissoni, F., Salter, A., & Sobrero, M. (2013). Academic engagement and commercialisation a review of the literature on university–industry relations. *Research Policy*, 42(2), 423–442.
5. Salmi, Jamil. (2009). *The Challenge of Establishing World-Class Universities*. Directions in Development Human Development. World Bank.
6. Benneworth, P. (2019). *University research and regional development State of the Art Review No 25*. Enterprise Research Centre.
7. Ambasz, D., et al. (2023). *Towards higher education excellence in Central Asia a roadmap for improving the quality of education and research through regional integration*. World Bank Working Paper.
8. World Bank. (2018). *Modernizing Higher Education Project Uzbekistan Project Appraisal Document and related materials*. World Bank Documents.
9. UNESCO (2022). *Global Education Monitoring Report: Financing Education – Investments and Priorities*. Paris: UNESCO Publishing.
10. World Bank (2021). *Uzbekistan Education Sector Analysis: Challenges and Opportunities*. Washington, DC: The World Bank.
11. OECD (2020). *Education at a Glance 2020: OECD Indicators*. Paris: OECD Publishing.
12. Altbach, P., Reisberg, L., & Rumbley, L. (2019). *Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution*. UNESCO Publishing.
13. Marginson, S. (2016). *The Dream is Over: The Crisis of Clark Kerr's California Idea of Higher Education*. University of California Press.
14. Becker, G. S. (1993). *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. University of Chicago Press.
15. Tilak, J. B. G. (2015). *Higher Education, Public Good and Markets*. Springer

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100